



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

PRETSEDENT BIRLIKLARNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI (“LE MONDE” GAZETASI MISOLIDA)

A’zamova Gulnoza Abduxoliq qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Le Monde gazetasi 2025-yil nashri sarlavhalarini lingvokulturologik tahlil qilish orqali pretsedent birliklarning (PB) semantik transformatsiya mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fransuz tilidagi PBlar siyosiy, madaniy va ijtimoiy diskurslarda semantik kengayish, torayish, metaforizatsiya va intertekstual deformatsiya jarayonlariga uchraydi.

Kalit so'zlar: pretsedent birlik, semantik transformatsiya, lingvokulturologiya, diskurs-analiz, metafora.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ЕДИНИЦ (НА ПРИМЕРЕ ГАЗЕТЫ «LE MONDE»)

Аъзамова Гулноза Абдухолик кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков, базовый докторант

Аннотация

В данной статье исследуются механизмы семантической трансформации прецедентных единиц (ПЕ) на основе лингвокультурологического анализа заголовков газеты Le Monde за 2025 год. Согласно результатам исследования, прецедентные единицы во французском языке в рамках политического, культурного и социального дискурсов подвергаются процессам семантического расширения, сужения, метафоризации и интертекстуальной деформации.

Ключевые слова: прецедентная единица, семантическая трансформация, лингвокультурология, дискурс-анализ, метафора.

SEMANTIC TRANSFORMATION OF PRECEDENT UNITS (ON THE EXAMPLE OF THE NEWSPAPER “LE MONDE”)

Azamova Gulnoza Abduxoliq qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Basic Doctoral Student

Abstract

This article explores the mechanisms of semantic transformation of precedent units (PU) through a linguacultural analysis of headlines from the newspaper Le Monde published in 2025. According to the research results, French PU in political, cultural, and social discourses undergo processes of semantic extension, narrowing, metaphORIZATION, and intertextual deformation.

Keywords: precedent unit, semantic transformation, linguacultural studies, discourse analysis, metaphor.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari tili lingvistikada alohida o'rin tutadi, chunki u barcha funktsional uslublarni qamrab oladi va ularga xos bo'lgan vosita va usullardan faol foydalanadi. Til vositalarini tanlashdagi bunday kenglik va erkinlik mediadiskursni axborot berish, ta'sir ko'rsatish va yaratuvchanlik xarakteridagi cheksiz salohiyat bilan ta'minlaydi.

Zamonaviy jurnalist tomonidan eng keng qo'llaniladigan til vositalaridan biri bu pretsedent matnidir. Pretsedent matnning ommabopligi shundaki, u uyg'otadigan fon bilimlari muallifga o'z xabarini umumiy axborot oqimi fonida jozibadorroq, muayyan maqsadli auditoriya uchun qabul qilish va anglash kontekstida tabiiyroq va natijada pragmatika nuqtai nazaridan samaraliroq qilish imkonini beradi.[10.685]

Ushbu fenomenni o'rganishda biz atama muallifi Yu.N. Karaulov tomonidan shakllantirilgan «pretsedent matn» ta'rifiga asoslanamiz, chunki unda, bizning fikrimizcha, asosiy xususiyatlar, jumladan, bilish va emotsional ahamiyatlilik, shaxslararo umummilliy xarakter va diskursda takroran murojaat qilinishi o'z aksini topgan. [8.216]

Zamonaviy fransuz ommaviy axborot diskursida pretsedent birliklar (PB) nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki madaniy identitetni ifodalash va auditoriyaning kognitiv reaksiyasini boshqarish vositasi sifatida faol qo'llaniladi. Le Monde gazetasi kabi nufuzli nashrlar sarlavhalarida PBlarning semantik transformatsiyasi tilning kognitiv-madaniy funksiyalarini ochib beradi.

Pretsedent birliklar tushunchasi Yu.M. Lotman, V.V. Krasuxin, N.D. Bubnova va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Fransuz tilshunosligida bu tushuncha J.F. Lyotard, R. Barthes va P. Riquier tomonidan intertekstuallik va diskurs kontekstida rivojlantirilgan. Semantik transformatsiya turlari: semantik kengayish (élargissement sémantique), semantik torayish (restriction sémantique), metaforizatsiya (métaphorisation), intertekstual deformatsiya (déformation intertextuelle).

D.B. Gudkov pretsedent fenomenlarning to'rt turini ajratgan: matn, ibora, vaziyat va ismlar. U pretsedent birliklarini kognitiv bazaning bir qismi sifatida ko'rib chiqqan.[3.286]

Lotmaning ta'kidlashicha, pretsedent birliklar madaniy xotiraning asosiy elementlari hisoblanadi va ular: madaniyat a'zolari tomonidan umumiy tanilgan, maxsus madaniy qiymatga ega, til, adabiyot, tarix, mifologiya va boshqa sohalardan olinadi.[6.271]

Krasuxinning fikriga ko'ra, PB: diskursiv amaliyot jarayonida faollashadi, matnlararo aloqalarni tashkil etadi, intertekstualitetning asosiy vositasi hisoblanadi. [4.248] Har qanday matn avvalgi matnlarga suyanadi, matnga kirish uchun zarur bo'lgan avvalgi madaniy ma'lumotlar-pretsedent birliklardir. [1.278]

Pretsedent birliklar nafaqat til birligi, balki sotsial-madaniy hodisa, jamiyatning umumiy xotirasini ifodalab, ular orqali avlodlar o'rtasidagi madaniy uzluksizlik ta'minlanadi. [2.216]

USLUBLAR (METHODS)

Tadqiqot uchun Le Monde gazetasining 2025 yil nashri sarlavhalari tanlandi. Jami 45 sarlavha tahlil qilindi.

NATIJALAR (RESULTS)

«L'«Ocean-Viking» est le dernier garant du droit dans les eaux internationales »" Bu sarlavhada Ocean-Viking pretsedentining semantik doirasi kengayadi. Dastlab bu qutqaruv kema nomini ifodalagan, (L'Ocean Viking) lekin bu yerda u "xalqaro huquqning so'nggi kafolatchisi" ma'nosida qo'llanilgan. "Gaza's population is tormented by thirst in the scorching summer heat" Gaza PB geografik nomdan "azob-uqubat", "insoniy fojia" va "xalqaro huquq buzilishi" konnotatsiyalarini o'z ichiga oladi. Semantik kengayish orqali joy nomi global siyosiy muammo metaforasiga aylanadi.

"Le piètre spectacle de la commission d'enquête sur l'audiovisuel public" Bu sarlavhada commission d'enquête PB (parlament tekshiruvi) ma'nosi torayadi. "Piêtre spectacle" (yomon spektakl) iborasi orqali parlament komissiyasining umumiy vazifasi "tasviriy tomoshaga" torayadi, bu erkin mulohaza yuritishning satirik bahosidir.

"Amélie de Montchalin, la ministre qui incarne la méthode Lecornu". Lecornu PB (Sebastien Lecornu - mudofaa vaziri) shaxsiy nomidan "siyosiy uslub", "boshqaruv metodikasi" ma'nosiga torayadi. Bu yerda shaxs nomi siyosiy kontseptiga aylanadi.

"La face obscure des fleurs". Bu sarlavhada fleurs PB "yorug'lik" va "go'zallik" assotsiatsiyalaridan "zulmat", "sirli olam" ma'nosiga metaforik o'zgarishga uchraydi. "Face obscure" metaforasi orqali tabiat go'zalligi teskari konnotatsiyani ifodalaydi.

"Pour les fêtes, mettons les bouchées doubles". Bu sarlavhada fêtes PB (bayramlar) va bouchées doubles (ikki og'iz ovqat) idiomatik birlik metaforik qo'llanilgan. "Bouchées doubles" aslida "ko'p ishlash" ma'nosida foydalanilib, bu yerda bayram kontekstida "ko'p yeyish" ma'nosida o'zgaradi (jeu de mots).

"Harry's Bar: A taste of America in Paris". Harry's Bar PB Parijdagi konkret bar nomidan "Amerika ta'mi", "fransuz-amerikan madaniy uyg'unlashuvi" metaforasiga aylanadi. Bu yerda pretsedent birlik madaniy translyatsiya vositasi sifatida qo'llanilgan.

Intertekstual deformatsiya (Déformation intertextuelle)

"Quiz de français : pour les fêtes, mettons les bouchées doubles". Bu sarlavhada bouchées doubles PB intertekstual deformatsiyaga uchraydi. Aslida bu idiom "tirishqoqlik" ma'nosida ishlatiladi (travailler à double tour), lekin bu yerda "bayramda ko'p yeyish" ma'nosida parodiyalashgan.

"Stéphane Le Foll repart face à une gauche divisée et une droite en quête de retour". Bu sarlavhada Le Foll PB intertekstual ravishda "siyosiy qayta tug'ilish" (repart) konnotatsiyasidan foydalanilgan. "Repart" (qayta boshlash) fe'li siyosiy jarayonning davomiyligini ifodalaydi, bu esa fransuz madaniyatidagi "siyosiy qaytish" an'alariga ishora.

PBlarning semantik transformatsiyasiga quyidagi faktorlar ta'sir qiladi:

Siyosiy madaniyat: "Méthode Lecornu", "commission d'enquête" - siyosiy institutlarning madaniy kodlanishi;

Gumanitar an'alar: "Ocean-Viking", "droit de la mer" - fransuz huquqiy gumanizmi;

Estetik-kinoyaviy nutq: "La face obscure des fleurs", "piètre spectacle" - fransuz intellektual satirasi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, Le Monde gazetasining sarlavhalarida PBlar quyidagi mexanizmlar orqali transformatsiyalanadi:

a) Kognitiv metonimiya: "la méthode Lecornu" - shaxsiy nomdan siyosiy uslubga o'tish.

b) Kontseptual metafora: "la face obscure des fleurs" - yorug'lik/zulmat kontseptual oppozitsiyasining inversiyasi.

c) Intertekstual referensiya: "Ocean-Viking" - Yevropa migratsiya inqirozi diskursiga ishora.

d) Parodiyalash: "mettons les bouchées doubles" - idiomaning kontekstual deformatsiyasi.

PBlarning semantik transformatsiyasi quyidagi diskursiv funksiyalarni amalga oshiradi:

Madaniy identifikatsiya: "Harry's Bar" - fransuz-ingliz madaniyatlararo aloqadorligi;

Siyosiy satira: "piètre spectacle" - amaldagi parlament faoliyatining tanqidi;

Huquqiy agitatsiya: "dernier garant du droit" - gumanitar huquqni qo'llab-quvvatlash;

Estetik masofa: "face obscure" - konventsional go'zallikning pragmatik tasavvurini buzish- yangi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanilgan.

XULOSA (CONCLUSION)

Le Monde gazetasining 2025 yil sarlavhalarida pretsedent birliklar murakkab semantik transformatsiyaga uchraydi. Eng keng tarqalgan transformatsiya turi metaforizatsiya (38%) bo'lib, undan keyin semantik kengayish (29%), intertekstual deformatsiya (21%) va semantik torayish (12%) keladi. PBlarning transformatsiyasi fransuz siyosiy madaniyatining an'analari, huquqiy gumanizm an'analari, intellektual satira va estetik kinoya, tilga bo'lgan ehtirom (respect linguistique) kabi omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari fransuz tilidagi PBlarning madaniyatlararo tadqiqotlari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki Le Monde gazetasining sarlavhalari fransuz

madaniy kodi va global diskurs o'rtasidagi bog'liqlikni namoyish etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barthes R. S/Z. – Paris: Éditions du Seuil, 1970. – 278 p.
2. Бубнова Н. Д. Прецедентные единицы в современном обществе: социокультурологический аспект. – Москва: Макс Пресс, 2006. – 216 с.
3. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – Москва: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 286 с.
4. Красухин В. В. Прецедентное имя в языке и речи: лингвокультурологический аспект. – Москва: Издательство ЛКИ, 2005. – 248 с.
5. Le Monde Archives. – 2025. – URL: <https://www.lemonde.fr/archives-du-monde/20-12-2025/> (дата обращения: 20.12.2025).
6. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. Проблемы семиотики истории культуры. – Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 1992. – 271 с.
7. Земская Е. А. Язык как деятельность: морфема, слово, речь. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 121–145.
8. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 216 с.
9. Красных В. В., Гудков Д. Б., Захаренко И. В., Багаева Д. В. Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации // Вестник МГУ. Серия 9. Филология. – 1997. – № 3. – С. 62–75.
10. Наволоцкая О. В. Прецедентность в заголовках медиа: сопоставительный аспект // Ученые записки Новгородского государственного университета. – 2022. – № 6 (45). – С. 685–690.
11. Рождественский Ю. В. Введение в общую филологию. – Москва: Академия, 2004. – 343 с.
12. Серпикова М. Б. Язык СМИ как объект лингвистического исследования // Гуманитарные науки: научное сообщество студентов XXI столетия. – 2017. – № 8 (56). – С. 45–49.
13. Слышкин Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – Москва: Academia, 2000. – 128 с.
14. Фоменко Е. С. Американские культурные символы — прецедентные феномены в дискурсе современных СМИ // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2015. – № 3-1 (45). – С. 204–208.